



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To‘plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a‘zolari:


g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G‘.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G‘.O‘.

Mas’ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7506757>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING NOZOGEOGRAFIK VAZIYATI
VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

Xusanova Komilaxon Dilmurod qizi

magistrant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

e-mail: xusanovakomilaxon711@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston aholisining umumiy salomatlik va kasalanish ko'rsatkichlari, ularga ta'sir etuvchi geografik omillar tasvirlangan. Maqolada Respublika aholisi soni, tug'ulish va o'lim jarayonlari, umr davomiyligi ko'rsatkichlari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Umr davomiyligi, o'lim, kasallanish, tug'ilish, geografik omillar, umr ko'rish yoshi, nozogeografik vaziyat.

**THE NOSOGEOGRAPHIC SITUATION OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN AND THE FACTORS AFFECTING IT**

Khusanova Komilaxon

Annotation: In this article, the indicators of the general health and morbidity of the population of Uzbekistan, geographical factors affecting them are described. In the article, the number of the population of the Republic, the processes of birth and death, the indicators of life expectancy are expressed.

Key words: Life expectancy, death, morbidity, birth, geographic factors, age of life expectancy, nosogeographic situation.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida, asosan, Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoli sharqida bo'lib, 45° 36' shimoliy kenglikdadir. Eng janubiy nuqtasi Termiz shahri yonida, Amudaryo qirg'og'ida bo'lib, 37° 11' shimoliy kenglikda. Eng g'arbiy nuqtasi Ustyurt platosida bo'lib, 56°00' sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa Farg'ona vodiysining sharqiy qismida, 73° 10' sharqiy uzunlikdadir. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan janubiy nuqtasi orasidagi masofa 925 km ga, eng g'arbiy nuqtasi bilan sharqiy nuqtasi orasidagi masofa esa 1400 km ga teng.

O‘zbekiston O‘rta Osiyodagi aholisi eng ko‘p davlat hisoblanadi. Davlat statistika qo‘mitasining 2022-yil 1-yanvar ma’lumotiga ko‘ra O‘zbekiston doimiy aholisi soni 35 271 276 tashkil qiladi. Oxirgi 22 yilda O‘zbekistonda aholining o‘shishi 24 487 700 dan 35 271 276 gacha oshdi bu esa o‘z navbatida 22 yil davomida aholining 44% ga oshganidan dalolat beradi.(1-jadval)

1-jadval

O‘zbekistonning doimiy aholi soni


(yil boshiga, ming kishi)

Hududlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	24487,7	26021,3	28001,4	31022,5	33905,2	34558,9	35271,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1503	1569,9	1632	1763,1	1898,3	1923,7	1948,5
Andijon	2186,2	2342,7	2549,1	2857,3	3127,7	3188,1	3253,5
Buxoro	1419,3	1507,6	1612,5	1785,4	1923,9	1947,1	1976,8
Jizzax	974,8	1043,3	1116,8	1250,1	1382,1	1410,5	1443,4
Qashqadaryo	2166,8	2378,5	2616,1	2958,9	3280,4	3335,4	3408,3
Navoiy	783,3	810,2	851,6	913,2	997,1	1013,6	1033,9
Namangan	1924,3	2073,2	2258,5	2554,2	2810,8	2867,5	2931,1
Samarqand	2670,3	2867,1	3119	3514,8	3877,4	3947,7	4031,3
Surxondaryo	1736,7	1894,9	2075	2358,3	2629,1	2680,8	2743,2
Sirdaryo	642,2	672,2	714,4	777,1	846,3	860,9	878,6
Toshkent	2350,2	2452,3	2585,9	2758,3	2941,9	2975,9	2941,5
Farg‘ona	2664,4	2840,9	3074,6	3444,9	3752	3820	3896,4
Xorazm	1323,9	1432,8	1561,6	1715,6	1866,5	1893,3	1924,2
Toshkent sh.	2142,3	2135,7	2234,3	2371,3	2571,7	2694,4	2860,6

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Davlat satatistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkinki umumiy aholining 45% Toshkent, Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘z navbatida aholining respublika bo‘ylab notekis taqsimlanganligidan dalolat beradi.

Lekin ushbu o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgani bilan aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi Osiyo davlatlariga solishtirganda pastroq, xususan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2015-yil e‘lon qilgan statistikasida O‘zbekiston 194 davlat ichida 122 o‘rinda (o‘rtacha umr ko‘rish 69 yosh) turibdi. Eng ko‘p umr ko‘ruvchi davlat esa Yaponiya (o‘rtacha umr ko‘rish 84 yosh). Shundan kelib chiqib savol tug‘iladi: Aholini o‘rtacha umr ko‘rish yoshini oshirish uchun qanday qo‘shimcha ishlarni amalga oshirish kerak? Ushbu muammoni yechimini topishdan avval quyidagi grafikka nazar solsak. (1-rasm)



1-rasm. O‘zbekiston aholisining yillar oralig‘ida tug‘ilishi va o‘lim grafigi

So‘nggi yillarda respublikamiz hududlarida ekologik vaziyatning yomonlashuvi, aholi ijtimoiy ta‘minotidagi o‘zgarishlar va shu kabi qator sabablar oqibatida aholining umumiy kasallanishi ortib borgan. Masalan, agar 1998-yilda har 10 ming kishiga aholining kasallanishi 4035,8 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2014-yilda bu ko‘rsatkich 5072,9 kishiga yetgan [1, 94-b.]. Asosiy kasallik guruhlari bo‘yicha aholining kasallanishi tahlil qilinganda ko‘pgina kasallik guruhlari salmog‘ining birmuncha ortib borayotganligi aniqlandi. Chunonchi, qon aylanish, ovqat hazm qilish, qon va qon hosil qiluvchi a‘zolar kasalliklarining ortib borayotganligi bugungi kunda katta muammo keltirib chiqarmoqda.

Kattalar orasida 2020-yilda kasallanish darajasi 1995-yilga qaraganda birmuncha kamaygan bo‘lsa, lekin u 1992-yilga nisbatan ancha ortgan. Bolalar o‘rtasida kasallanish hollari ham so‘nggi o‘n yil davomida biroz o‘sgan. Shuningdek, aholi kasallanishi viloyat va shaharlar darajasida birmuncha ortib borgan. Ayniqsa, Navoiy, Sirdaryo, Buxoro viloyatlari va Toshkent shahrida bu hol yaqqol seziladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 1991-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan davrda eng salbiy holatlar Sirdaryo viloyatida kuzatildi. Jizzax, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida esa ushbu yillarda aholi kasallanishi ko‘rsatkichlari birmuncha kamaygan. Respublika mintaqalarini aholining umumiy kasallanish darajasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- kasallanish ko‘rsatkichi eng yuqori mintaqalar. Ushbu guruhga respublikamizda faqatgina Toshkent shahri va viloyatini kiritish mumkin;

- umumiy kasallanishi yuqori hududlar. Ushbu guruhga respublikamizda faqatgina Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona, Andijon viloyatini kiritish mumkin;

- umumiy kasallanishi ortacha hududlar Navoiy, Namangan, Sirdaryo viloyatlardir.

- kasallanish ko‘rsatkichlari past hududlar Xorazm, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax va boshqa viloyatlarni kiritish mumkin.[3, 134-b.]

O‘zbekiston sharoitida ko‘proq ovqat hazm qilish a‘zolari (oshqozon, yo‘g‘on va to‘g‘ri ichak), ko‘krak bezi faoliyati bilar bog‘liq rak shakllari aholi orasida keng tarqalgan. Xavfli o‘sma kasalliklari eng ko‘p uchraydigan hududlar Toshkent shahri, Andijon va Toshkent viloyatlari hisoblanadi. Shunday qilib, respublikamiz aholisining umumiy kasallanishi va somatik xastaliklarga chalinishi 1991–2020-yillarda birmuncha ortib borgan. Ayniqsa, qon aylanishi, ovqat hazm qilish, endokrin, ruhiy buzilishlar va boshqa ayrim xastaliklar guruhlari sezilarli tarzda ko‘paygan. Mazkur kasallik guruhlari bilan og‘riganlar soni bo‘yicha Toshkent shahri, Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlari alohida ajralib turadi, Ayrim somatik kasalliklar guruhlari, shu jumladan, xavfli o‘sma, nafas olish, asab va sezgi a‘zolar xastaliklari birmuncha kamaygan.

So‘nggi yillarda mamlakatizda tog‘-kon sanoatining tez sur‘atlarda rivojlanib borishi ham mazkur hududlar ekologik holatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Angren-Olmaliq sanoat rayoni atrofida qazilma ishlarining olib borilishi oqibatida atrof-muhit sezilarli tarzda ifloslanishda davom etmoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, Toshkent shahri va Toshkent viloyatining sanoat markazlarida (Olmaliq, Chirchiq, Angren, Ohangaron va b.) onalar va go‘daklar o‘limi, ba‘zi kasallik guruhlari (xavfli o‘sma, yurak, qon-tomir, asab, ruhiy buzilishlar, nafas olish a‘zolari tizimi kasalliklari) bilan kasallanish ko‘rsatkichlari respublika darajasidan bir necha barobar yuqori [2, 276-b.]. Shu sababdan, yuqorida ko‘rsatilgan shaharlarda urboekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, sanoat korxonalari, transport va boshqa infratuzilma tizimini to‘g‘ri hududiy tashkil etishga jiddiy e‘tibor qaratmoq zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Melinda S. Meade and Michael Emch _Medical Geography, Third Edition, 2010. – 26-29 b.
2. Komilova N.Q. Tibbiyot geografiyasining nazariy va amaliy masalalari. Monografiya. - Toshkent, —SHARQI, 2016. 275-277 b.
3. Komilova N.Q., Soliev A.S. Tibbiyot geografiyasi. -Toshkent, “Istiqlol”, 2005. . – 39-43 b.
4. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>